Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317842

Bugungi kunda energiya inqirozi va ekologik muammolarni hal etishda "yashil energetika"ning o‘rni tobora ortib bormoqda. An'anaviy energiya manbalarining cheklanganligi va ekologik zararlar, shuningdek, iqlim o‘zgarishlari kabi global tahdidlar yashil energetikaning rivojlanishi asosiy zaruriyatga aylandi. Yashil energetika – bu faqat ekologik tozalikka asoslangan energiya manbalaridan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda ham katta imkoniyatlarni yaratadi. Yashil energiya texnologiyalari va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish orqali, mamlakatlar nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlash, balki iqtisodiy barqarorlikni, yangi ish o‘rinlarini yaratishni va ijtimoiy farovonlikni oshirishga erishishi mumkin.

Shu bilan birga, yashil energetika iqtisodiyotning yangi drayveriga aylanib, uning rivojlanishiga katta turtki bo‘lishi kutilmoqda. Mamlakatimiz uchun bu soha nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki kelajakda energetika sektorining yangi shakllarini joriy etish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Yashil energetika bugun va kelajakda nafaqat atrof-muhitni asrash, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga katta hissa qo‘shadigan muhim soha ekanligini ta'kidlash mumkin. Ushbu sohada amalga oshiriladigan innovatsion yondoshuvlar va strategik qarorlar, bizni yanada barqaror, toza va raqobatbardosh energetika tizimiga olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil;

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-йил 11 сентабрдаги ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” ги Pf-158 сонли Farmoni;

3.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-noyabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko’rib chiqishga bag’ishlangan “Yangi O’zbekistonimiz yangi Parlamenti bilan birga o’z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo’ymoqda" nomli majlisidagi nutqi. Xalq so’zi gazetasi 2024-yil 21-noyabr, № 240 (8863)-soni, 2-beti;

4.Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH.X. va boshq. Yashil iqtisodiyot: Darslik.-Toshkent.: “Universitet”, 2020. – 262 b.

MAHALLIY BYUDJETNING SHAKLLANISHIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Axmadjonov Sodiq Solievich
Andijon davlat texnika instituti

271

Published: 24.05.2025

Cite this article: Axmadjonov Sodiq Solievich (2025). Mahalliy byudjetning shakllanishida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317842

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Phone: +998999068812
E-mail: Ahmadjonov @gmail.com

Yangilanayotgan O‘zbekistonda barqaror va samarali raqamli iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish aholi daromadlarining o‘sishini ta’minlash samarali tashqi savdo hamda investisiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritiladi.

Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda davlat byudjeti parametrlarini optimal variantlarda tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Byudjet(ning. budget — hamyon, mablag‘) — belgilangan muddat (yil, kvartal) uchun ishlab chiqilgan, me’yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig‘indisi.

Byudjet davlat darajasida - Davlat byudjeti, shuningdek viloyat, tuman (mahalliy hokimiyat), xo‘jalik sub’yektlari, oila yoki shaxs darajasida tuzilishi mumkin. Byudjetni tuzish va belgilangan tartibda tasdiqlash o‘z navbatida uning amal qilishi hamda bajarilishi ustidan nazorat yuritishni talab qiladi. Byudjetda xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi Byudjet taqchilligi muammosini keltirib chiqaradi, shu bois doimiy ravishda ularning muvofiqligi ta’minlab boriladi. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslari, davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish tartibi va boshqa masalalar O‘zbekiston Ryespublikasining «Byudjet tizimi to‘g‘risida» qonuni bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh qilish va mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti iqtisodchilar oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi taraqqiyotning hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mushtarakligini ta’minlash asosidagi o‘ta ma’suliyatli vazifalarini samarali bajarilishini talab etmoqda-ki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko‘rsatish muhimdir:

- birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot doirasidagi muammolarning keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslik va,
- ikkinchidan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ularning imkoniyatlarini yaxshilanishining zarurligi.

Ushbu har ikki jihatning o‘zaro bog‘liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o‘ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi. Jumladan, mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar moliyaviy manbalarini mustahkamlash yo‘nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu zaruriyatni ongli tarzda mushohada etgan holda izlanishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olinganki, ular qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarining mazmuni, omillari va hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ahamiyatini tatbiq etish.
2. Yangi sharoitlarda mahalliy byudjetlarni “moliyaviy tenglashtirish” siyosati orqali boshqarishning dastaklari amal qilishi xususiyatlarini tahlil etish.
3. Byudjetlararo munosabatlar amaldagi mexanizmni mahalliy byudjetlar imkoniyatlari shakllanishining omili, kompleks tahlilni amalga oshirish.
4. Mahalliy byudjetlar rivojlanish istiqbollarini belgilashda ularning imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yuzasida islohotlar quyidagi dolzarb masalalarni o‘z ichiga olishi lozim;

ahalliy byudjetlarning o‘z va biriktirilgan daromadlarini oshirish;

davlatlarning markazlashgan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetlararo munosabatlarni mukammalashtirish orqali mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish;

byudjet jarayoni va yangi byudjet tasnifini takomillashtirish;

hududiy iqtisodiyot muammolarini ijobiy hal etish imkonini beruvchi mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta’minlash mexanizmlarni yaratishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

Bu jarayon bevosita mahalliy byudjetlarning ma’suliyatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki unda mamlakat aholisi istiqomat qiladi. Bu jarayonning moliyaviy manbasi bo‘lib mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar oldiga O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyoti bo‘yicha bir qator vazifalarni qo‘yadi.

1. Mamlakatimizda qabul qilingan taraqqiyot strategiyasi asosida iqtisodiy muammolar oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish, shu asosda iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqaror sur’atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta’minlash;

2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo‘li bilan amalga oshirish:
3. Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga, fermer xo‘jaligining rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan uzoq muddatli, o‘zaro chuqur bog‘langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;
4. Aholi bandligini ta’minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko‘rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;
5. Mamalaktni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzlimani yanada rivojlantirish;
6. Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag‘batlantirish.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish, mahalliy hokimiyat organlarini ushbu byudjetlarni tuzish, ijro etishdagi huquqlarni kengaytirish bilan bog‘liqdir.

Davlat byudjeti ijrosida qatnashuvchi barcha organlarda davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarini xisobga olish asosida byudjet tasnifi yotadi. Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, kurib chiqish, qabul qilish xamda ijro etish maqsadida byudjet ma’lumotlarini bir tizzimga solish uchun foydalanish va u byudjet ma’lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma’lumotlari bilan qiyoslanishini ta’minlash maqsadida davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruxlash xisoblanadi. Byudjet tasnifi xamma byudjetlarni bir yagona davlat byudjetiga jamlash imkoniyatini yaratadigan aso-siy tashkiliy funksiyani amalga oshiruvchi xujjatgina bulib qolmay, u katta iqtisodiy axamiyatga xam egadir. Tasnifda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bir xil alomatlari buyicha guruxlanadi va ular bulinmalar deb yuritiladi. Bulimlar, toifalar, paragraflar, moddalar, kichik moddalar va elementlar byudjet tasnifi bulinmalari bulib xisoblanadi.

Byudjet tasnifi qonunchilikda belgilangan tartibda Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Turli darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi kursatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi, ya’ni

tasnif ob’yektlariga berilgan guruxlashtirish kodlari buyicha daromadlar va xarajatlar guruxlanadi.

Byudjet ma’lum vaqt — hafta, oy yoki yil davomida daromad va xarajatlarning umumiy miqdorini ko‘rsatib beradi. U davlat, kompaniya, ma’lum bir inson yoki oilaniki bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa daromadlar asosan oyning uchinchi o‘n kunligida tushadi va bu o‘z navbatida byudjet tashkilotlarining ish haqi to‘lovlarini o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida, shuningdek shahar tumanlarda byudjet tashkilotlarining asosiy qismini tahlim va sog‘liqni saqlash muassasalari tashkil qilishini inobatga olib, mazkur sohalar bo‘yicha ish haqi xarajatlarini o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida respublika byudjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilishi belgilandi.

Foydalanilgan me’yoriy xujjatlar va adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasnifini kullash buyicha yuriqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ruyxatga olingan).
2. Ostonaqulov M. Davlat byudjeti gazna ijrosining buxgalteriya xisobi. -T.:2009 yil.
3. M. Ostonaqulov. Byudjet hisobi va tasnifi. Журнал Экономика и финансы (Узбекистан), 2010 yil.
4. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 16 avgust, PQ-353-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori.
5. 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli Farmoni.

AXOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

O.X.Maxmudov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti, professori
Iqtisod fanlari doktori
E-mail: maxmudovodiljon1965@gmail.som